

Termiz shahrida yosh iste'dodlar ishtirokida kontsert dasturi o'tkazildi



Termiz shahrida yosh iste'dodlar ishtirokida kontsert dasturi o'tkazildi

Termiz shahridagi San'at saroyida "Yoshlar oyligi" doirasida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlangan "Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" ezgu g'oyasi shiori ostida "Biz istiqlol avlodimiz!" deb nomlangan Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'quvchilari va jamoasi ishtirokida kontsert dasturi ko'tarinki ruhda tashkil etildi. Tadbirda Termiz shahar hokimligi, shahar Ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasi, Termiz shahar Yoshlar ishlari agentligi, viloyat Madaniyat boshqarmasi va shahar Madaniyat bo'limi hamda hamkor tashkilot vakillari, ta'lim muassasalari bitiruvchilari, ishsiz, uyushmagan, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar ishtirok etishdi. Kontsert dasturi davomida Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabining bitiruvchi o'quvchilari tomonidan ijro etilgan kuy qo'shiqlar barcha ishtirokchilarga birdek manzur bo'ldi.

